



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MA'NODOSH SO'ZLARNING O'RNI VA TA'LIMYI AHAMIYATI

Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich

Farg'ona davlat universiteti, professor (DSc)

Abdurahimova Gulbahor

Farg'ona davlat universiteti, talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'nodosh so'zlar haqida umumiy tushuncha, ularning darsliklardagi ifodalanish shakllari hamda o'quvchilarning til boyligini, nutqini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini ma'nodosh so'zlar yordamida rivojlantirish hamda ma'nodosh so'zlarni o'qitishda qo'llaniladigan samarali metodlar, o'yinli mashqlar va interfaol yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ma'nodosh so'zlar, sinonim, boshlang'ich ta'lim, ona tili darsliklari, lug'at boyligi, leksik tafakkur, nutq madaniyati, ijodiy fikrlash, ta'limiy ahamiyat, metodika

РОЛЬ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СИНОНИМОВ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Тешабоев Дилмурод Рахмаджонович

Ферганский государственный университет, профессор (DSc)

Абдурахимова Гульбахор

Ферганский государственный университет, студентка

Аннотация

В данной статье рассматривается общее понятие о синонимах, их формы представления в учебниках, а также роль в развитии словарного запаса, речи и творческого мышления учащихся начальной школы. Приводится подробная информация о развитии речи учеников начальной школы с помощью синонимов, а также об эффективных методах преподавания синонимов, игровых упражнениях и интерактивных подходах.

Ключевые слова: синонимы, начальное образование, учебники родного языка, словарный запас, лексическое мышление, культура речи, творческое мышление, образовательное значение, методика.

THE ROLE AND EDUCATIONAL IMPORTANCE OF SYNONYMS IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE

Teshaboyev Dilmurod Rakhmadjonovich

Fergana State University, Professor (DSc)

Abdurahimova Gulbahor

Fergana State University, Second-year student

Abstract

This article analyzes the general concept of synonyms, their forms of representation in textbooks, and their role in developing students' vocabulary, speech, and creative thinking. It provides detailed information on developing primary school students' speech through the use

of synonyms, as well as effective methods, game-based activities, and interactive approaches used in teaching synonyms.

Key words: synonyms, primary education, native language textbooks, vocabulary, lexical thinking, speech culture, creative thinking, educational value, methodology.

Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, diqqati sekin-astalik bilan barqarorlasha boshlaydi, so'z boyligi ortadi, tafakkur doirasi kengayadi. Dars davomida o'tilayotgan har bir mavzu boshlang'ich sinf o'quvchising aqliy salohiyati o'sishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ayniqsa, bu davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayonni rivojlantirish uchun esa, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish talab etiladi. M.R. Lvov ta'kidlaganidek, "So'z tilning asosiy ma'no birligini ifodalasa, lug'at boyligi ham butun jamiyatning, ham har bir shaxsning muloqot jarayonidagi taraqqiyot belgisidir". Haqiqatdan ham chiroyli nutq insonni yanada go'zallashtiradi. Bu jarayonni takomillashtirish uchu ma'nodosh so'zlarning ahamiyati katta. O'quvchilar ma'nodosh so'zlar orqali biror fikrni turli xil shakllarda ifodalashni, so'zlarning ohangdorligi va uslubiy nozikliklarini anglashni o'rganadilar. O'z ona tilisining lug'at boyligi naqadar boy ekanligini anglab yetadilar. Shu sababli boshlang'ich sinf darsliklarida ma'nodosh so'zlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'nodosh so'zlar – talaffuzi va yozilishi har xil, lekin ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir (masalan: husn – chiroy, kosmos – fazo, tez – chaqqon). Ular tilimizni boyitadi, nutqni xilma-xil va ifodali qiladi. Shuningdek, nutqning boyligini ta'minlaydi, jo'yaliligini va sofligini oshiradi. Sinonimlar ya'ni ma'nodosh so'zlar tilni leksik jihatdan boyitadi, shuning uchun bunday so'zlar bilan ishlash muhim. Tilimizning ifodaliligi ortishi uchun biz ma'nodosh so'zlardan ko'proq foydalanishimiz kerak. O'zbek tili - sinonimlarga boy til hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu turdagi so'zlarni o'rganish mobaynida lug'at boyligini oshiradilar, sinonimik qatorlar ularning tafakkurini rivojlantiradi, dars jarayonida turli xil mashqlar, topshiriqlarni bajarish mobaynida bir fikrni turli yo'llar bilan ifodalashni o'rganadilar.

Nutq – insonlar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi. Uni yordamida aloqa qilamiz, ya'ni boshqalar bilan gaplashamiz va ularga ta'sir o'tkazamiz, masalan, ularni ishontirish, quvontirish kabi. Biz nutq orqali o'ylagan fikrlarimizni va his- tuyg'ularimizni til yordamida boshqalarga yetkazamiz. Agar o'quvchi nuqtai nazaridan aytadigan bo'lsak, maktabda yaxshi o'qish uchun nutq muhim vosita hisoblanadi.

Nutq ikki turga bo'linadi: og'zaki va yozma nutq. O'quvchilar ta'lim olish mobaynida ham og'zaki ham yozma nutqlarini rivojlantirib boradilar. O'quvchilarning og'zaki nutqlari dars davomida savol-javoblar o'tkazish, hikoya aytish hamda suhbatlarda rivojlanadi. Yozma nutqlarini esa kundalik yozuv, insholar, topshiriqlar orqali mustahkamlashadi.

Nutq o'stirish – bu tilni yaxshilash, so'z boyligini oshirish va gapirish qobiliyatini rivojlantirishdir. Agar o'qituvchi ta'lim jarayonida nutq masalasiga e'tibor bermasa o'quvchilarning nutqi mazmun jihatdan kambag'al bo'lib qolishi mumkin. K.B.Barxin, B.I.Sokolov, M.A.Ribnikova va boshqa olimlar o'z metodik asarlarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini birga rivojlantirishga alohida e'tibor berganlar. Agar nutq jarayoni boshlang'ich sinf davridan boshlab shakllantirilsa o'quvchilarning nutqi mazmunan boy, ravon hamda ta'sirli bo'ladi. Demak, biz ma'nodosh so'zlar va nutq jarayonini o'zaro

integratsiya qiladigan bo'lsak, biz nutqimizni ma'nodosh so'zlar yordamida yanada sayqallab unga ishlov berib boramiz.

Ma'nodosh so'zlarning nutq rivojlanishdagi ahamiyati:

1. Lug'at boyligini kengaytiradi va o'quvchilarda so'z tanlash madaniyatini shakllantiradi.

2. Yozma hamda og'zaki nutqi rivojlanadi.

3. 3. Fikrni aniq va to'g'ri ifodalash ko'nikmasi shakllanadi.

4. Matn tuzish malakasi boyiydi. O'quvchilar matn mazmunini to'g'ri ifodalay oladilar, takroriylik kamayadi, gaplar o'zaro bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarga ma'nodosh so'zlarni o'qitish jarayonida quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

1. Berilgan so'zga mos sinonim tanlash. O'qituvchi biror so'zni aytadi: shamol, husn. O'quvchilar shu so'zga ma'nosi yaqin so'zni topadi.

2. Matndagi tushirib qoldirilgan sinonimlarni topib yozish. Matnda bo'sh joy qoldiriladi. O'quvchi unga mos sinonimni qo'yadi.

3. Berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash.

4. Sinonim so'zlar qatoridan foydalanib o'yin yoki mashq qilish. Bu yerda 4 ta sinonim beriladi, o'quvchi ularni to'g'ri joylashtiradi yoki ichidan birini tanlab gap tuzadi.

5. Gapdagi so'z o'rniga mos sinonim qo'yish. O'qituvchi gap beradi, ichida qavsdan sinonimlar turadi. O'quvchi mazmunga eng mos so'zni tanlaydi.

Boshlang'ich sinf 4-sinf ona tili dasliklarida ma'nodosh so'zlar turli mashq va topshiriqlar orqali berilgan. Ushbu mashqlarning ahamiyatini tahlil qiladigan bo'lsak masalan,

4-sinf ona tili darsligidagi 64-mashqda quyidagi topshiriq berilgan. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Do'st achitib gapiradi, ... kuldirib (yov, g'anim, dushman).

2.... do'st ayrilmas (o'lchovli, sanoqli, hisobli).

3....ga ayyor (muhayyo, shay, tayyor).

4.... o'zadi, egri to'zadi (to'g'ri, vijdonli, insofli).

Javoblari: dushman, hisobli, tayyor, to'g'ri

O'quvchilar ushbu mashqqa nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yishadi va mashqni topqirlik bilan bajarishadi. Ushbu mashqni bajarish davomida o'quvchilarda so'zlarni tanlash malakasi shakllanadi, so'z boyligi ortadi, topqirlik va mantiqiy fikrlash rivojlanadi, o'quvchi ham ma'nodoshlar mavzusini o'zlashtiradi ham berilgan xalq maqollari orqali axloqiy saboqlar chiqaradi.

65-mashqda o'quvchilar berilgan gaplarni o'qishadi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'nodoshiga almashtirib yozishadi.

Shokir akasiga maktub yozdi.

Nasiba qiyin masalani o'zi yechdi.

Toshkent - chiroyli shahar.

Nasiba opa barvaqt uyg'ondi.

Uyga berilgan vazifa oson ekan.

Ushbu mashq o'quvchilarning so'zlarni turli shakllarda ishlatilishini tushunishga, bir xil ma'noni ifodalovchi so'zlarni izlab topishga o'rgatadi. So'z boyligini oshiradi bunda o'quvchi chiroy so'zi o'rniga go'zal so'zini, barvaqt so'zi o'rniga erta so'zini ishlatishni o'rganadi.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, ma'nodoshlar mavzusini o'rganish mobaynida o'quvchilarning nafaqat nutqi rivojlanadi, balki fikrlashi ham o'sib boradi. Bu jarayonlarni

takomillashtirish uchun darsliklarda berilgan mashqlarning ahamiyati katta.

MUHOKAMA

Tilshunoslik adabiyotlarida ta'kidlanishicha, qaysi tilda sinonimlar ko'p bo'lsa, o'sha til eng boy til hisoblanadi; aksincha, omonimlar haddan tashqari ko'p bo'lsa, bu tilning qashshoqligidan dalolat beradi. Bu fikr o'zbek tilining boyligiga baho berishda ham muhim mezon bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, boshlang'ich sinflarda "ma'nodosh so'zlar" mavzusining ahamiyati nihoyatda katta. O'quvchilarga bu mavzuni mukammal o'rgatish nafaqat ularning leksik bilimlarini, balki nutq madaniyatini, yozma va og'zaki ifoda qobiliyatini ham sezilarli darajada rivojlantiradi. O'quvchilarga ma'nodoshlar, ya'ni sinonimlar mavzusini o'rgatishda kitobdagi mashqlardan tashqari mavzuni yanada mustahkamlash uchun interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni yanada mustahkamlashlariga yordam beradi. «Ma'nodosh so'zlar» o'quvchilarga o'yin tarzida tashkil etilsa, o'quvchilarning bu topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish ortadi va ushbu mavzuni yaxshiroq o'zlashtiradi. Masalan,

1. "Aqliy hujum" metodi

O'qituvchi bitta so'zni aytadi, o'quvchilar esa navbatma-navbat shu so'zga ma'nodosh so'zlarni aytib boradilar.

2. "Rasm orqali sinonim top"

Ekranga rasm chiqariladi. O'quvchilar rasmga mos sinonim topadi. Masalan, katta-ulkan-yirik.

Ushbu metod o'quvchilarning mavzuni yanada mustahkam egallashlariga yordam beradi. Chunki o'quvchilar vizual ma'lumotlarni matndan ko'ra tezroq eslab qoladi.

3. Jadvalga joylashtirish. O'quvchilarga matn beriladi. Berilgan matndan sinonimlarni ajratib jadvalga joylashtirishadi.

4. Guruhli topshiriqlar. O'quvchilarni guruhlariga ajratib mavzu bo'yicha topshiriqlar berish.

Bundan tashqari dars davomida turli xil nostandart testlardan foydalanish darsni samarali tashkil qilishga yordam beradi. Dars davomida ham an'anaviy ham zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli tashkil qilishga yordam beradi.

Hozirgi zamon talabi bo'yicha o'qituvchi dars o'tish mobaynida 3 ta maqsadni o'ziga qamrab oladi: ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi.

Ma'nodoshlar mavzusini o'qitish mobaynida o'qituvchi o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, lug'aviy zaxirasini mustahkamlash va fikrni aniq ifodalash malakasini shakllantirishga qaratilgan ta'limiy vazifalarni, shuningdek nutqda odobni saqlash, so'zlardan o'rinli foydalanish, tengdoshlar fikriga hurmat bilan qarash kabi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshiradi. Bunga qo'shimcha ravishda, sinonim so'zlarni tanlash, ularni nutq jarayonida o'rinli qo'llash, matnni ifodali qayta hikoya qilish kabi faoliyatlar orqali o'quvchilarning tafakkuri, og'zaki nutqi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi rivojlanib boradi. Shunday qilib, ma'nodosh so'zlarni o'rgatish jarayoni darsning rivojlantiruvchi maqsadlarini ham izchil ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodoshlar mavzusini 1-sinfdan boshlab sekin-astalik bilan tushuntirib borsa va nutqida ma'nodosh so'zlardan foydalansa o'quvchilarning nutqi asta-sekinlik bilan rivojlanib, takomillashib boradi. O'quvchilarning sinonimlarni tushunishi va undan foydalanishi sekin-astalik bilan ortib boradi. Dars jarayonida so'z ma'nosini uning ma'nodoshi yordamida tushuntirish nafaqat lug'aviy ma'noni ochib beradi, balki so'zning stilistik (uslubiy) ohangini ham tushunishga yordam beradi. Masalan, Agar matn ichida sabo so'zi kelib qolsa, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun o'quvchiga sinonimi yordamida tushuntirish: "Sabo – shabada, ya'ni yengil shamol esishi."

Agar “Ma’nodoshlar mavzusi” o‘quvchilarga boshlang‘ich sinfdanoq puxta va tizimli tarzda o‘rgatilsa, bu ularning til boyligi oshishiga va savodxonligi kengayishiga yordam beradi. Natijada ular matn yoki insho yozish chog‘ida bir xil so‘zlarni qayta-qayta ishlatmasdan, sinonimlardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga odatlanadilar. Boshlang‘ich sinfdan ma’nodosh so‘zlarni tizimli o‘rganish o‘quvchilarni tilni ongli va maqsadli ishlatishga, matnlarni boy va qiziqarli qilishga, ham og‘zaki, ham yozma nutqini rivojlantirishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, ular kelajakda murakkab matnlar yaratishda so‘zlarni maqsadli va o‘rinli ishlata olish qobiliyatini egallaydilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari “Ma’nodoshlar mavzusi” orqali lug‘at boyligini sezilarli darajada oshiradilar. Bu esa o‘quvchilarning darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida topqirlik va faollik bilan ishtirok etishlariga, shuningdek, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish uchun ushbu mavzuni o‘quvchilarga hozirgi zamon talablari asosida o‘qitish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. / M.E.Toirova - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. - 88 b.
2. Qosimova K. va boshqalar. ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 200
3. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, G.Xolboyeva. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. – 2021-yil
4. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2012